

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING YOSH VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Tugizboyeva Sevinch Abdunabi qizi

*Guliston Davlat Pedagogika Instituti Pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi 1-bosqich talabasi sevinchabdunabiyevna@gmail.com +998915993107*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik jihatdan shakllanib, ijtimoiylashish jarayonlari tahlil qilinadi. Ilmiy-nazariy manbalar orqali bolalarning bilish jarayonlari, emotsional-irodaviy holati, ijtimoiy moslashuvi va o'quv faoliyatiga bo'lgan munosabati yosh davrlari kesimida yoritilgan. Yosh davrlarining boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilimlarni qabul qilish, psixologik jihatdan shakllanish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, yosh xususiyatlari, bilish jarayonlari, psixologik rivojlanish, o'quv faoliyati.*

Boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining eng muhim bo'g'ini bo'lib, aynan shu bosqichda bola shaxsining asosiy psixologik va ijtimoiy sifatlari shakllana boshlaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ya'ni 6 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan oralig'ida bolalikdan o'smirlikka o'tishning muhim davri bo'lib, bu davrda bolaning psixik rivojlanish sur'ati tezlashadi. L.S. Vygotskiy ta'kidlashicha, har bir yosh davrining o'ziga xos yetakchi faoliyati mavjud bo'lib, boshlang'ich sinf davrida bu – o'quv faoliyatidir. Binobarin, umuminsoniyat rivojlanishi to'plangan bilim, ong osti faoliyatining to'laqonli shakllanishi, muloqot jarayonlarining takomillashishi natijasida ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topishida poydevor mustahkam bo'lishini talab qiladi.

Boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining eng muhim bo'g'ini bo'lib, aynan shu bosqichda bola shaxsining asosiy psixologik va ijtimoiy sifatlari shakllana boshlaydi. 6–10 yosh oralig'i bolalikdan o'smirlikka o'tishning muhim davri bo'lib, bu davrda bolaning psixik rivojlanish sur'ati tezlashadi. L.S. Vygotskiy ta'kidlaganidek, har bir yosh davrining o'ziga xos yetakchi faoliyati mavjud bo'lib, boshlang'ich sinf davrida bu – o'quv faoliyatidir.

Mazkur maqolaning maqsadi – boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini ilmiy manbalar asosida yoritish hamda amaliy ta'lim jarayonida ushbu xususiyatlarni hisobga olish zarurligini asoslab berishidir.

Boshlang'ich maktab yoshi bolalar hayotida o'yin faoliyatidan o'quv faoliyatiga o'tish davri sifatida xarakterlanadi. Bu jarayon bolaning kundalik hayot tarzini, mas'uliyat hissini, intizomini va ijtimoiy munosabatlarini tubdan o'zgartiradi. O'quv faoliyati yetakchi faoliyatga aylanishi natijasida bolaning bilish jarayonlari — diqqat, xotira, tafakkur va nutq jadal rivojlana boshlaydi. Shu bilan birga, bolada o'z xatti-harakatlarini boshqarish, o'zini baholash va o'z imkoniyatlarini anglash ko'nikmalari shakllanadi. Psixologiyada 6–10 yosh davri kichik maktab yoshi deb ataladi. Bu davr bolaning hayotida tub burilish yasaydi: u o'yin faoliyatidan asta-sekin o'quv faoliyatiga

o'tadi. A.N. Leontevga ko'ra, aynan faoliyatning o'zgarishi psixik rivojlanishning asosiy omilidir.

Ushbu yosh davrining asosiy xususiyatlari:

- tashqi ta'sirlarga sezuvchanlikning yuqoriligi;
 - kattalar, ayniqsa o'qituvchi shaxsiga kuchli taqlid;
 - ijtimoiy qoidalarga bo'ysunishga intilish.
- Bilish jarayonlarining rivojlanishida;
- idrok;
 - diqqat;
 - xotira;
 - tafakkur.

Idrok – bu insonning sezgi organlari qabul qilgan ma'lumotlarni tartibga solib, aks ettirish jarayonidir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining idroki aniq va obrazli xarakterga ega. Ular predmetning tashqi belgilariga ko'proq e'tibor qaratadilar. D.B. Elkonin tadqiqotlariga ko'ra, bu yoshdagi bolalarda idrok hali tahliliy darajaga to'liq ko'tarilmagan bo'ladi. Shu sababli dars jarayonida ko'rgazmali qurollardan foydalanish yuqori samaradorlik beradi.

Diqqat – bu inson ongining ma'lum bir ob'ekt, narsa yoki hodisaga yo'naltirilishi va to'planishini anglatuvchi psixik jarayon. Diqqatning barqarorligi kichik maktab yoshida cheklangan bo'lib, o'rtacha 10–15 daqiqani tashkil etadi. Psixolog S.L. Rubinshteyn fikricha, diqqatni ixtiyoriy boshqarish aynan shu davrda shakllana boshlaydi. Bu holat darsni qisqa va mazmunli faoliyat turlariga bo'lib tashkil etishni talab qiladi.

Xotira – bu tashqi olamdagi ma'lumotlarni va o'tmish tajribalarini miyada saqlash va tiklash qobiliyatini bildiruvchi jarayon. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mexanik xotira mantiqiy xotiraga nisbatan ustunroq. Vygotskiy xotira rivojini nutq va tafakkur bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqadi. Shu bois, matnni tushuntirish jarayonida mazmunli yodlash usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Tafakkur – bu fikrlashning eng oliy shakli bo'lib, obyektiv dunyoni aks etish, tushunish, umumlashtirish va yangi bilimlar yaratish kabi jarayondir. Bu yosh davrida tafakkur asosan konkret-operatsion bosqichda bo'ladi (J. Piaget bo'yicha) [6, 72-bet]. Bolalar mantiqiy xulosalarni real predmetlar va aniq vaziyatlar asosida chiqaradilar. Abstrakt tafakkur elementlari esa 3–4-sinflarga kelib rivojlana boshlaydi.

Boshlang'ich sinf davrida bolaning so'z boyligi tez sur'atda oshadi. Nutqning grammatik tuzilishi mukammallashib boradi. M. Mahmudovning ta'kidlashicha, ona tili darslari nutq rivojida yetakchi o'rin tutadi. O'qish va yozish jarayoni bolaning ichki nutqini rivojlantiradi. Pedagogik mahoratga tayangan holda, o'qituvchi bolada o'z ona tiliga bo'lgan mexr, ulug'lash kabi fazilatlarni uyg'otsa, vatanning ravnaqi o'z fikrini erkin bayon eta oladigan shaxslar tarbiyalanib, bilim olayotgandan dalolatdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari emotsional jihatdan ta'sirchan bo'ladilar. Muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikka bo'lgan munosabatlari keskin namoyon bo'ladi. K.D. Ushinskiy bolaga berilgan bahoning uning shaxsiga emas, faoliyatiga qaratilishi lozimligini ta'kidlaydi. Jumladan, kichik maktab bolalaridagi shijoatni so'ndirish yoki uni

kurtak otishiga zamin yaratish nafaqat ota-onaning sunungdek, pedagoglarning ha masuliyatli vazifasidir. Ularning dars davomida bajargan vazifalariga ijobiy baholash hamda rag'bantlashtirish, fanlarga qiziqishini orttiradi.

Iroda sifatlari esa o'quv faoliyati jarayonida bosqichma-bosqich shakllanadi. Kichik sinfdagi bolalar ijtimoiy muhitga endingina qadam qo'yishni boshlagan bir paytda, o'rganishi zaruru bo'lgan fanlarni qunt bilan o'zlashtirish faoliyatida iroda muhim psixik jarayon hisoblanadi. Chunonchi, irodani sayqallashtirish orqali sabr, mas'uliyat kabi fazilatlar shakllanib boradi.

Shuningdek, boshlang'ich sinf yoshida bolaning ijtimoiylashuvi faol kechadi. U sinf jamoasi a'zosi sifatida o'z o'rnini anglay boshlaydi, tengdoshlari bilan muloqot qilish, hamkorlikda ishlash, o'z fikrini ifodalash ko'nikmalarini egallaydi. Bu jarayonda axloqiy tushunchalar, badiiy-estetik did, mehnatsevarlik va mas'uliyat kabi sifatlari shakllanadi. Bu davrda bola sinf jamoasining to'laqonli a'zosiga aylanadi. Tengdoshlar bilan munosabatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Elkonin fikricha, jamoaviy faoliyat bolada ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantiradi.

O'quv faoliyati va motivatsiya ta'lim sohasida muhim omillardan biridir. Boshlang'ich sinfdagi o'quv motivlari asosan tashqi xarakterga ega. Vaqt o'tishi bilan ichki – bilishga bo'lgan qiziqish motivlari shakllanadi. Bu jarayon o'qituvchining pedagogik mahoratiga bevosita bog'liq.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish ta'lim jarayonida quyidagi metodologik imkoniyatlarni yaratadi:

- interfaol va o'yin metodlaridan samarali foydalanish;
- o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish; individual yondashuvni amalga oshirish;
- ta'lim motivatsiyasini oshirish.

Metodologik imkoniyatlar ma'lum bir maqsad asosida, turli usullardan foydalanish orqali mavzuni chuqur tushunish, o'zlashtirish hamda o'quvchining olgan bilimlarini ko'rsatilishi orqali samarador ekanligi isbotlanadi. Masalan, muammoli o'qitish metodidan foydalangan holda, "Qanday qilamiz?", "Qanday javob topamiz?" kabi savollarni o'rtaq tashlash orqali masalaning javobiga yechim topamiz. Bu metodda bolalar tengdoshlarni eshitishni, tushunishni hamda jamiyatda ijtimoiylashgan jarayonda o'z munosabatini bildirish olishi va sog'lom fikrlay olish ko'nikmasi paydo bo'ladi. Biroq, agarda mavzuga aloqador bo'lmagan metodikalardan foydalanish o'quvchi ongida noto'g'ri tushunchani shakllantirishga olib keladi.

Tadqiqotning metodologik salohiyati shundan iboratki, u boshlang'ich ta'lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan xulosalar va metodik tavsiyalar ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Ushbu yondashuv maqolaning ilmiy qiymatini oshirib, uni pedagogik amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shuningdek, maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining emotsional-irodaviy rivoji va ijtimoiylashuv jarayonlari ham muhim pedagogik omil sifatida e'tirof etildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'qituvchining shaxsiy namunalari, rag'batlantirish usullari va sinfdagi ijobiy psixologik muhit bolaning o'qishga bo'lgan munosabati, o'ziga bo'lgan

ishonchi va ijtimoiy faolligini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Boshlang'ich sinf davrida o'quv motivatsiyasini shakllantirish masalasi alohida ahamiyatga ega bo'lib, dastlab tashqi rag'batlar asosida vujudga kelgan motivlar asta-sekin ichki ehtiyoj va qiziqishga aylanishi lozim. Bu jarayonda badiiy-estetik tarbiya, ijodiy faoliyat va o'yin elementlaridan foydalanish bolaning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun individual yondashuv, ularning qobiliyat va ehtiyojlarini hisobga olgan pedagogik strategiyalar, sinfdagi ijobiy psixologik muhit va o'qituvchining rag'batlantiruvchi yondashuvi bolaning o'qishga qiziqishi, mustaqil fikrlash qobiliyati va ijodiy faoliyatini rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Umuman olganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan ta'lim jarayoni ularning har tomonlama barkamol shaxs bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'lim amaliyotini takomillashtirish, o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish hamda ta'lim jarayonida individual yondashuvni kuchaytirish uchun ilmiy-metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Mazkur maqola xulosalari boshlang'ich ta'lim pedagoglari, bo'lajak o'qituvchilar, tadqiqotchilar hamda pedagogika yo'nalishidagi talabalar uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, kelgusida olib boriladigan ilmiy izlanishlar uchun mustahkam poydevor yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1996.
2. Leontev A.N. Faoliyat. Ong. Shaxs. – Moskva, 1975.
3. Elkonin D.B. Bolalar psixologiyasi. – Moskva, 1989.
4. Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari. – Moskva, 2002.
5. Piaget J. Bolaning tafakkuri va nutqi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990.
6. Mahmudov M. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent, 2018.
7. Ushinskiy K.D. Inson – tarbiya predmeti. – Moskva, 1988.